



JINOYAT - IJROIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, VAZIFASI, PRINSIPLARI VA TIZIMI.

Irnazarov Shuhrat Najmetdinovich

*TerDU Yuridik Fakulteti Jinoyat huquqi va
fuqarolik protsessi kafedrasi o'qituvchisi*

Allaberdiyeva Gulbahor Shavkat qizi

TerDU Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya : Mazkur maqolada jazo tushunchasi, jazo maqsadi. Jinoyat-ijroiya huquqi tushunchasi vazifalari, prinsiplari, manbalari va tizimi yoritilgan.

Kalit so'zlar: jazo tushunchasi, jazo maqsadi, huquq sohasi, qonun hujjatlari, fan predmeti, qonunchilik prinsiplari.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda va butun dunyo hamjamiyati tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga, jumladan mahkumlarga nisbatan munosabatlar jiddiy o'zgarib ularga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu holatni jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi ko'p jihatdan sud hukmida tayinlangan jinoiy jazo qanchalik odilona va qonuniy ijro etilayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Jinoyat qonunchiligi va jinoyat-ijroiya qonunchiligi doirasida jazo tushunchasiga ta'rif O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 42-moddasida batafsil berilgan bo'lib bu - Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazoning maqsadi esa mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Jinoyat kodeksi jinoiy jazolarning asosiy vazifalarini belgilab bersa-da, ammo jazoni ijro etish jarayonini tartibga solmaydi.



Jinoyat-ijroiya huquqi tushunchasi bir qancha ma'nolarga ega bo'lib, ular: 1) huquq sohasi; 2) qonunchilik sohasi va 3) o'quv fanidan iboratdir. Bu sohalarga alohida to'xtaladigan bo'lsak: Huquq sohasi huquq tarmog'i sifatida jinoiy jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarining ijrosini ta'minlashga qaratilgan huquq sohasi hisoblanadi. Qonunchilik sohasi jinoyat-ijroiya qonunchiligi va vazifalari, prinsiplari, jazoni ijro etish asosi va tartibi, mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalari va mahkumlarning huquqiy holati, jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlar doirasida mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini qo'llash tartibi va shartlarini belgilaydi. O'quv fani jinoyat-ijroiya qonunchiligiga oid nazariyalarning rivojlanish tarixi, huquqni qo'llash samaradorligi, chet davlatlarning jazoni ijro etish sohasiga oid qonunlari, xalqaro huquq normalari, qonunlarni qo'llashning nazariy muammolari, huquq sotsiologiyasi, jazoni ijro etish tartibi va shartlari hamda mahkumlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va shu kabi boshqa muammolarni o'rganishga bog'liq ilmiy nuqtai nazar, g'oya, tushunchalar va nazariyalar tizimidir.

Jinoyat- ijroiya huquqi fani huquqning mustaqil sohasi bo'lishi bilan birga, zamonaviy huquqshunoslik fanining tarkibiy qismi hamdir. O'tgan asrning 30-yillarigacha jinoyat-ijroiya huquqi Axloq tuzatish - mehnat huquqi fani deb yuritilib, nazariyotchi yuristlarning ham amaliyotchilarning ham e'tiborini jalb qilmagan. Bu davrda jinoyat-ijroiya huquqini o'rganadigan fanlar penitensiar fan, penitensiar siyosat, axloq tuzatish - mehnat siyosati deb nomlangan. 1926-yilda O'zbekiston SSRning birinchi Axloq tuzatish - mehnat kodeksi qabul qilingan va O'zbekiston mustaqillikka erishib, 1997-yildagi Jinoyat-ijroiya kodeksi qabul qilinguniga qadar mamlakatimizda ushbu fan Axloq tuzatish-mehnat huquqi deb nomlangan va o'rganib kelingan. Hozirgi kunda esa bu fan aynan Jinoyat-ijroiya kodeksi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganar ekan, mazkur munosabatlarga Jinoyat kodeksi 43-moddasida nazarda tutilgan jazolarni hamda boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini o'tash va ularni ijro etish tartibi



kiradi. Jinoyat-ijroiya huquqi huquqning umumiy nazariyasiga mos tarzda huquqqa xos bo'lgan zarur belgilarga ega bo'lib, o'z predmeti, usullari, vazifalari, tizimi va manbalari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

Jinoyat-ijroiya huquqi fanining predmetiga – amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiligini tartibga solish, uni qo'llash bilan bog'liq muammolar, jazoni ijro etish huquqi normalari va ularni qo'llash samaradorligi, jinoiy jazolarni ijro etish va o'tash tartibi hamda shartlarini, barcha turdagi jazolar va boshqa jinoyat huquqiy ta'sir choralarini ijro etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o'rganish kiradi. O'z navbatida jinoyat-ijroiya qonunchiligining bir qancha asosiy vazifalari mavjud bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 2-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari jazolarni ijro etishning prinsiplari va qoidalarini belgilab bergan. Ular boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarining qo'llanish holatlarini o'zida aks ettiradi. Jinoyat- ijroiya qonun hujjatlari prinsiplari 1997-yil 25-aprelda qabul qilinib, shu yili 1-oktyabrdan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 6-moddasida belgilangan. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining prinsiplari ikki turga umumiy prinsiplar va maxsus prinsiplarga bo'lingan. Umumiy prinsiplar doirasiga qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizim prinsiplari, maxsus prinsiplar doirasiga esa jazoni ijro etishda differentsiatsiyaga rioya etish, jazoni ijro etishda individuallashtirishga rioya etish, mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash prinsiplari kiradi.

So'zimiz so'ngida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Jinoyat-ijroiya huquqi huquq tizimining muhim va ajralmas qismi bo'lib, faqatgina jazolashga emas, balki adolatni tiklash, jinoyatchilikning oldini olish, mahbuslarning jamiyatga



qayta integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Jinoyat-ijroiya huquqi sud hukmlarining samarali, qonuniy hamda insonparvarlik tamoyillari asosida ijro etilishini ta'minlaydigan mustahkam huquqiy asos hisoblanadi. Jinoyat-ijroiya huquqi tushunchasi, vazifalari, tamoyillari, prinsiplari va tizimini chuqur anglash, jazoni ijro etish jarayonining shaffof, qonuniy hamda inson huquqlariga mos kelishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bu sohada faoliyat yurituvchi barcha subyektlar uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi – 01.10.1997
2. S.Niyozova, K.Hakimov, D.Israilov, SH.Xaydarov,
Z.Shamsiddinov – Jinoyat-ijroiya huquqi darslik – T.2024
3. Internet saytlar:
<https://lex.uz>
<https://www.yumpu.com>